



Fakultet: Iqtisodiyot va menejment

Kafedra: Iqtisodiyot (suv xo'jaligida)


Fan: Ijtimoiy soha iqtisodiyoti

Mavzu: Uy-joy kommunal xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishidagi tarkibiy o'zgarishlar va erishayotgan yutuqlarning ahamiyati.

Toshkent 2018

Mavzu: Uy-joy kommunal xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishidagi tarkibiy o'zgarishlar va erishayotgan yutuqlarning ahamiyati.

Reja:

- 1. Uy-joy kommunal xo'jaligi va uning tarmoqlari haqida tushuncha.**
 - 2. Mamlakatimizda ushbu sohada mustaqillik yillarida va undan keyin qabul qilingan qarorlar va amalda qilingan ishlar.**
 - 3. So'nggi yillarda ushbu sohada qabul qilingan qarorlar va ularning amaldagi tadbiqi hamda natijalari.**
- 

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar, ko'rsatadigan xizmat turlaridan kelib chiqib, asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) Uy-joy majmuasiga xizmat ko'rsatish va uy-joy fondini ta'mirlash-qurilish tashkilotlari;
- 2) Issiqlik energiyasi ta'minoti xo'jaligi;
- 3) Gaz ta'minoti xo'jaligi;
- 4) Elektr energetika ta'minoti va ko'chalarni yoritish xo'jaligi;
- 5) Suv ta'minoti va oqova-quvur xo'jaligi;
- 6) Muxandislik tizimlari va inshootlari (lift, havoni shamollatish – sovitish va boshqalar)ga xizmat ko'rsatish korxonalari.

Uy-joy kommunal xo'jaligi — bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, u aholi hayotiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo'lgan resurslar yetkazib berilishi bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi 2017 yil 18 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5017- sonli farmoniga asosan tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari:

- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;
- ko'p honadonli arzon uylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilishini ta'minlash, ko'p honadonli arzon uylar, suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti ob'ektlari qurilishi bo'yicha buyurtmachi funksiyalarini amalga oshirish, eski va avariya holatidagi uy-joylar buzilishini tashkillashtirish;
- ko'p honadonli uylarning texnik holatini monitoring qilish, shu jumladan, ko'p honadonli uy-joy fondini mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini tashkil qilish;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash, rivojlangan horijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini inobatga olgan holda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish;

2. Mamlakatimizda ushbu sohada mustaqillik yillarida qabul qilingan qarorlar va amalda qilingan ishlar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-martdagi 114-sonli Qarori bilan «O‘zbekiston Respublikasidagi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish, uni saqlash va undan foydalanish to‘g‘risidagi Nizom» tasdiqlangan. 1993-yil 7- mayda O‘zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida» gi Qonun qabul qilindi.

Uy-joy x o‘jaligini isloh qilishning dastlabki bosqichida islohotlarning **qonunchilik asosini** quyidagilar tashkil etadi:

- 1993-yil 7-maydagi «O'zbekiston Respublikasi davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida» gi qonun;
- O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi «Davlat uy-joy siyosatining asoslari to'g'risida» gi qonun;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-apreldagi «Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida aholiga communal xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 211-soni qarori;
- O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-iyuldagi «Uy-joy kommunal xizmatlarning o'z xarajatlarini o'zi qoplashiga bosqichma-bosqich o'tish munosabati bilan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida» gi 271-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 3- noyabrda 461-sonli «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan «Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasi»;

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 1-aprelda qabul qilingan «Uy-joy kodeksi»;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabdagi «Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to'g'risida» gi farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 18-yanvardagi «Ko'p kvartirali uylarni kapital ta'mirlash uchun mablag'lar to'plash (yig'ish) va ulardan foydalanish to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida» gi 16-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 11-fevraldagi «Uy-joy-kommunal xizmatlarning o'z xarajatlarini o'zi qoplashiga bosqichma-bosqich o'tish munosabati bilan normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida «1996-yil 30- iyuldagi 271-son qaroriga qo'shimchalar kiritish haqida» gi 65-sonli qarori;

Qilingan ishlar:

1. 2004–2010–yillar davomida Buxoro va Samarqand shaharlarining suv ta'minoti tizimini rekonstruktsiya qilindi. (Xalqaro rekonstruktsiya va taraqqiyot banki 54.5 mln doll (MBRR)).

2. 2008–2011–yillarda XXR Eksimbanki tomonidan ajratilgan 44.9 mln doll.evaziga Farg'ona, Marg'ilon shaharlari va suv tarmog'iga yaqin joylashgan aholi punktlarining suv ta'mingotini tubdan yaxshilandi

2011–2015–yillarga mo'ljallangan Xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan 75.0 mln doll.ga yaqin mablag' ajratilib, Chimyon, Chorbog' dam olish zonasining rivojlanishini hisobga olgan holda Chirchiq shahrining kangalizatsiya inshootlarini rekonstruktsiya qilindi va kengaytirildi.

2010–2013–yillar XXR Eksimbanki tomonidan ajratilgan 25 mln doll. ga Namangan shahar kanalizatsion qurilmalarini rekonstruktsiya qilindi.

1993–yil 7–maydagi «O'zbekiston Respublikasi davlat uy–joy fondini xususiylashtirish to'g'risida» gi qonun chiqarilib, uning ijrosi sifatida davlat uy–joy fondining qariyb 99,0% fuqarolarga xususiy mulk qilib berildi. Umumiy maydoni 57 mln. m² bo'lgan 990,6 ming kvartira shu kvartirada yashovchi fuqarolarga sotildi. Fuqarolarda mulkka egalik hissini hosil qilish maqsadida kvartiralarning qiymati arzon baholarda belgilandi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan:

Mamlakatimizda uy-joy-kommunal sohasi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish, bu boradagi huquqiy asoslarni yaratish maqsadida mustaqillikdan keyingi yillarda tegishli qonunlar, Prezidentimiz farmon va qarorlari, hukumatning qator qarorlari qabul qilindi hamda tegishli dasturlar amalga oshirildi

Jumladan, Fuqarolik, Uy-joy, Shaharsozlik kodekslari, «Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida», «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Ijara to'g'risida», «Ipoteka to'g'risida», «Elektr energiyasi to'g'risida», «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida», «Chiqindilar to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidandir.

Ammo kommunal xizmat ko'rsatish sohasining toza ichimlik suvi, issiqlik, gaz ta'minoti, oqova suvlar va obodonchilik kabi sohalari alohida qonun bilan tartibga solinmagan. Bu sohalarda faoliyat asosan Vazirlar Mahkamasi qarorlari va qonunosti hujjatlardan iborat bo'lgan 50 dan ortiq qonun hujjati bilan tartibga solingan xolos.

3. So'nggi yillarda ushbu sohada qabul qilingan qarorlar va ularning amaldagi tadbiri hamda natijalari.

Oxirgi olti yilning o'zidagina 13 ming kilometrqa yaqin suv quvurlari va vodoprovod tarmoqlari, 1,6 mingtadan ko'proq suv chiqarish quduqlari, shuningdek, 1,4 mingta suv bosimini hosil qiladigan minora va rezervuarlar barpo etildi hamda rekonstruksiya qilindi. Natijada, jumladan, xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari va kreditlarini jalb etish hisobiga ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan ko'pgina aholi punktlari sifati va xavfsizligi bo'yicha zamonaviy talablarga mos keladigan suv bilan ta'minlandi.

2011–2016–yillarda mamlakatimizda qariyb 13 ming kilometrdan iborat yirik suv quvurlari va tarmoqlari, bino va inshootlarda 1 ming 600 dan ortiq suv chiqarish quduqlari, shuningdek, 1 ming 400 ta suv minorasi va rezervuari qurildi hamda rekonstruksiya qilindi.

Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlarining grant va kreditlarini jalb etish hisobidan ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan ko'plab aholi punktlari talabga javob beradigan ichimlik suvi ta'minoti bilan qamrab olindi.

Shu bilan birga, ayrim aholi punktlarini, eng avvalo, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlaridagi aholi maskanlarini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 4 mingdan ziyod xususiy uy–joy mulkdorlari shirkati 32,4 mingdan ortiq ko‘p xonadonli uylarga xizmat ko‘rsatmoqda. Uy–joylarni, avvalo, ipoteka krediti asosida qurish va rekonstruksiya qilish ko‘lami kengaymoqda. Bu o‘tgan davr mobaynida aholi nufusi muttasil o‘sib borishiga qaramasdan aholini uy–joy bilan ta‘minlash darajasini kishi boshiga 1991–yildagi 12,4 kvadrat metr o‘rniga o‘rtacha 15,2 kvadrat metrga yetkazish imkonini berdi.



Respublikamizdagi 1611,7 ming kv. m. turar joy fondiga ega 1039 ta ko‘p qavatli turar–joylarga 130 ta uy–joy mulkdorlari shirkati xizmat ko‘rsatmoqda (o‘rtacha 1 shirkatga 8 ta ko‘p qavatli turar joydan to‘g‘ri keladi). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 25 iyuldagi PQ–425–sonli qarori asosida, 1991 yilgacha qurilgan 406 ta ko‘p qavatli turar joylarga 2015–2016 yillarda kapital tamirlash ishlari amalga oshirildi.



Ushbu qaror ijrosini taminlash maqsadida Vazirlar Kengashining 2015 yil 5 martdagi 01–08/8–03/109–sonli bayonnomasiga muvofiq joriy yilga rejalashtirilgan 102 ta turar joylarning kapital tamirlash ishlariga 2142,2 mln. so‘m, jumladan byudjet parametrlarida ko‘zda tutilgan 424,5 mln. so‘m, mahalliy byudjet qo‘shimcha manbaalari hisobidan 1075,0 mln. so‘m, uy–joy mulkdorlari shirkatlari va homiylik mablag‘lari hisobidan 642,7 mln. so‘m yo‘naltirilishi belgilangan.



2016 yil 1 yanvar holatiga jami 1948,6 mln. so'm (91%), jumladan byudjet parametrlarida ko'zda tutilgan mablag'lardan 424,5 mln. so'm (100%), mahalliy byudjet daromadlaridan 879,5 mln. so'm (82%), uy-joy mulkdorlari shirkatlari va xomiylik mablag'lari hisobidan 644,5 mln. so'm (100,3%) mablag'lar moliyalashtirilgan. Jami ko'p qavatli uylarni kapital tamirlash bo'yicha bajarilgan ish hajmi 2159,6 mln. so'mni tashkil qilib, rejalashtirilgan 102 ta turar joylar to'liq tamirlandi.

So'nggi yillarda qabul qilingan qarorlar:

2017–2021–yillarda ko'p xonadonli uy–joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to'g'risida 24 aprel 2017 yildagi Prezident qarori



2017–2021 yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida 2017 yil 20 apreldagi PQ–2910–sonli Prezident qarori.



2018–2022–yillarda issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish dasturi to'g'risida 2017 yil 20 apreldagi PQ–2912–sonli Prezident qarori.



Respublika shaharlarida va tuman markazlarida kommunal drenaj tizimi ishlarini yaxshilashga doir qo'shimcha chora–tadbirlar to'g'risida 2013 yil 8 noyabrdagi 304–sonli Vazirlar Mahkamasi qarori.



2017–2020 yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uy–joylar qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirishga doir chora–tadbirlar to'g'risida 22 noyabr 2016 yildagi PQ–2660–sonli Prezident qarori

Joylardagi ijroiya hokimiyat organlari va davlat organlarining hududiy bo'linmalari rahbarlari uchun xizmat uy-joylari qurish chora-tadbirlari to'g'risida 22.12.2016 yildagi PQ-2693-sonli Prezident qarori

2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida 21.10.2016 yildagi PQ-2639 Prezident qarori

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida 2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 02.03.2017 yildagi PQ-2812 Prezident qarori

Islom taraqqiyot banki ishtirokida 2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida 30.03.2017 yildagi PQ-2859 Prezident qarori

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy xizmatchilariga turar joy qurilishi dasturi to'g'risida 30.03.2017 yildagi PQ-2858 Prezident qarori

Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 20.04.2017 yildagi PQ-2906 Prezident qarori

Коммунал хизмат нархлари Ўзбекистонда*

01.04.2018 йилдан бошлаб.

Газ



289,74

сўм 1 м³ учун
ҳисоблагич бор

ҳисоблагич йўқ

501,06

ойига юзлаш бошига

Совуқ сув



625

сўм 1 м³ учун
иссиқ сув бор хонадонларда

канализацияси бор ховли уй,
иссиқ суви йўқ хонадон 1 м³

460 | 295

канализацияси йўқ
ховли уй 1 м³ учун

Электр



228,60

сўм 1 кВт/с учун
ҳисоблагич бор

электр плитаси бор

114,30

ховли уй ва умумётоқхона

Иситиш



1323,86

ойига сўм 1 м²
иситиладиган майдон учун

SCHECHNIK.UZ
| газ | электричество | вода |

Иссиқ сув



3915,90

сўм 1 м³ учун
ҳисоблагич бор

ҳисоблагич йўқ

22 938,78

ойига киши бошига

Чиқинди



3500

сўм ойига
киши бошига

*Энергия манбаи
нарх-навоси ҳудудга қараб
фарқланадиган мумкин

Xulosa va takliflar

Respublikamizda kommunal xo'jaligi korxonalarining faoliyatini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni hududda joylashtirish va ular faoliyatini tashkil etish hamda kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalarda tejamkorlik, resurslarning texnologik sarflarini o'rganish va texnologik yo'qotishlarni hisoblashga alohida e'tibor qaratilgan.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda 157 ming nafardan ortiq xodim va xizmatchilar « Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatmoqda. Kommunalar xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatining samaradorligini yanada oshirish, sadoqat bilan bajarilgan mehnatni rag'batlantirish maqsadida qonunda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tashkil etilgan kun 18 aprel Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari kuni etib belgilandi. Bu yurtimizda ushbu soha faoliyatining ahamiyati muhim ekanligini ko'rsatadi. Ushbu sohada qilinishi lozim bo'lgan ishlar hali talaygina. Mamlakatimizning ba'zi viloyatlari va chekka-chekka tumanlar ushbu soha yaratib beradigan shart-sharoitlarga muhtojdir. Meni taklifim shundan iboratki ushbu soha faoliyatini tizimli tarzda, yani hamma viloyatlarning hamma tumanlarida va hamma tumanlarning hamma shaharcha va qishloqlarida bo'limalarini tashkil etish. Shunda o'sha tuman, shaharcha va qishloqlar kommunal xizmatlarning muhim tarmoqlaridan foydalangan bo'lardi